

Ona yurtning - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KINO PALATASI

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2006-yil 28 - avgust - 3 - sentabr N:35 (66576)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq
Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

ASSALOM, MAKTAB!



Istiqlol bu istiqbol,
Nurli hayot degani.
Qo'rg'on butun, el-yurt tinch,
Vatan obod degani.

Ulg'ayaman, shu niyat:
Bo'lsin mening keragim.
Istiqlolga munosib,
Farzand bo'lmoq tilagim!

Bizni qutlaydilar

Senator, Bosh vazir o'rinbosari, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisi S.TINAMOVAning «Tong yulduzi» gazetasi uchun Mustaqillik bayramining 15 yilligi munosabati bilan tabrigi:

Biz ulug' Vatanimizning, munavvar-u mukarram istiqlolimizning erkin, baxtli bolalarini g'urur bilan bag'rimizga bosamiz. Kelajak oldida ko'ksimizning yuksakligi, yuzimizning yorug'ligi shundanki, istiqlolning ilk qutlug' ne'mati, buyuk saxovati, tarixiy imtiyozlaridan eng avvalo bolalar bahramand bo'ldilar. Mamlakatimizda birinchi ta'sis etilgan «Sog'lom avlod uchun» ordeni yorqin istiqbolga ishonchli odim ekanligini nafaqat O'zbekistonimiz, balki dunyo mamlakatlari xalqlari ham e'tirof

Oqqan daryo oqadeydi dono

Tarixga
allomalar,
faylasuflar,
bergan bu
yangi tafakkur
mustaqil

imkoniyatlar eng avvalo farzandlarimizni baxtiyor kamoloti, yorug' istiqboli hamda xalqimizning ham jismoniy, ham ma'naviy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Aziz bolajonlarim!

Istiqlol bayramingiz muborak bo'lsin!

Davlatimiz rahbari Islom Abdug'aniyevich Karimov «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart», deya yuksak faxr bilan sizga ishonch bildirgan edilar. Ushbu purma'no so'zlar sizning kelajagingizda muhim omil bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir. Zotan, siz kelajagi buyuk O'zbekistonning istiqboli porloq, baxtiyor avlodlarisiz.

OQQAN DARYO
OQAUVERADI...

etmoqdalar.

veradi,

xalqimiz.

benazir

arboblar,

shoir-u san'atkorlar

muazzam Vatanimizda yangi-

yulduzlari kamolga yetgay. Zero,

respublikamizda kundan-kun yaratilayotgan

avvalo farzandlarimizni baxtiyor kamoloti, yorug' istiqboli

hamda xalqimizning ham jismoniy, ham ma'naviy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

KULGULARGA O'RALSIN OLAM



Vatan - mahalladan boshlanadi. Mahallada o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analarini, bag'rikengligini yu mehmondo'stligi mujassam. Xursandchiligingizni ham, xafagarchiligingizni ham avvalo mahalladosh-laringiz bilan bo'lishasiz. Ayniqsa, halol, pok, xalqning shodligi-yu g'amiga sherik bo'ladigan jonkuyar inson mahallaboshi bo'lsa, nur ustiga a'lonur. To'qqiz mingga yaqin aholi yashaydigan Fayzulla Xo'jayev mahalla ahli avval o'zlarida Xotin-qizlar qo'mitasi raisasi bo'lib ishlagan Ra'no opa Ochilovani bosh qilib saylashdi. Bunday mas'uliyatli ish yelkasiga yuklatilgan Ra'no opa hech ikkilanmay rozilik berdilar. Chunki, mahallada yashaydigan uch mingdan ortiq bolajonlar uchun bajarmoqchi bo'lgan talaygina ishlarining rejalarini ham tuzib qo'ygandilar. Birinchidan, ko'p qavatli uylar oldida bolalar maydonchasini qurish, kam ta'minlangan oila farzandlariga va yetim bolalarga yordam berish, shu mahallada yashaydigan sportchi va iqtidorli o'quvchilarni yurtga tanitish.

Bu voqeaga 3 oy o'tgan bo'lsa-da, opa bolajonlar uchun anchagina ibratli ishlarni amalga oshirishga

monlarining suratlari bilan chiroyli qilib bezatildi.

Bolajonlar oyoqyalang yugurishi uchun yerlarga chimlar to'shaldi. Mana, nihoyat barcha orzu qilgan kun ham yetib keldi: maydonchani ochilish marosimi bo'ldi. Kelgan mehmonlarga «O'zbek Kabel» zavodi rahbariyati to'kin

ulgurdilar. Ko'p yillardan buyon pashsha, chivin bosib yotgan chiqindixon o'rnida bolalar maydonchasi paydo bo'ldi va ayvon qurildi. O'rindiqlar, arg'imchoqlar, shaxmat-shashka stollari o'rnatildi. Gimnastika mashg'ulotlari uchun sharoit yaratildi. Bularning barini shu mahallada yashaydigan ishbilarmon, tadbirkor aka-ukalar - Mamatmurod va Shavkat aka Yusupovlar qurib berishdi. Maydoncha devorlari e r t a k qahra-

«2006-yil - Homiylar va shifokorlar yili»

dasturxon yozdi. Tadbirida ko'plab mehmonlar va bolajonlar qatnashdilar. Mirzo Ulug'bek tumani Oqsoqollar kengashi va «Mahalla» xayriya jamg'armasi raisi Jamoliddin aka Shohakimov davrani ochib berdi. Kechada tuman xususiy uy-joy mulkdorlar shirkatining uyushmasi raisi Bahodir aka Poyanov, Mahalla nuroniylar Kengashi raisi Aleksey Georgevich bolajonlarni tabriklab, shu ishda bosh-qosh bo'lganlarga rahmatlar aytishdi. «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati kengashi shahar bo'limi bilan birgalikda o'tkazilgan «Yulduzlar tashrifi» yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Bolajonlar «Bojalar» guruhi kuy-qo'shiqlariga yayrab raqsga tushishdi, Obid Asomovning ichakuzdi hangomalariga miriqib kulishdi. Astoydil mehnat qilib, shu mo'jazgina maydonchani qurdirib bergan aka-ukalar mahalla bolalari bilan bir qator-da o'z farzandlari Nafisa, Diyor, Gulbibi, Munisa, Bekzodlarning ham yayrab-quv-nashlarini ko'rib, qilgan mehnatlari samarasidan zavqlanishdi. Shunday serhimmat insonlar ko'payaversin, osmonimiz tinch, yurtimiz obod bo'lsin!

Nodira
MIRZAYEVA,
Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani.



YAYRAB O'SGIM, BOLAJON!

Bolajonlar! Bobolarimiz, otalarimiz bir umr ozodlikni, erkin yashashni orzu qilganlar. Mute bo'lib yashashni istamaganliklari uchun ham kurashganlar va bu voqea bundan 15 yil muqaddam yurtboshimiz rahnamoligida sodir bo'ldi.

Men kekxa bir pedagog yurtimizda Mustaqillik e'lon niyat bilan eslayman va bu

Har yili bayram arafasida bolalar bog'chalari, maktab-Siz aziz bolajonlarga tuhfa

Toshkentda Bolalar ijodiyot Sizning ixtiyoringizga berildi. Bu baland xonalarga ko'tarilib, ni yuqoridan tomosha qilishingiz hachi, quruvchi amakilaringizga

Ijodiy guruhimiz bilan Siz bolajonlarga darslik, o'quv qo'llanmalari tayyorladik. Ularda iqtisodimiz g'oyalari jamlangan. Bular Sizga bayram sovg'asidir.

Mustaqillik bayramining Bilimlar kuni bilan uzviy bog'liqligi ham bejiz emas.

Siz XXI asrda yashab, o'qib, hunar o'rganmoqdasiz. Bu qutlug' asr tarix zarvaraqlarida oltin harflar bilan bezatilishi kerak. Uni aql va zakovatingiz, mehnatsevarligingiz bilan bezaysiz, degan umiddaman.

Qumri ABDULLAYEVA,
pedagogika fanlari doktori, professor.



sifatida o'sha kunni, ya'ni, qilingan kunni mamnu-bayramni qadrlayman.

qanchadan-qancha yangi lar, kutubxonalar qurilib, qilinyapti.

uyi qurildi va u ham shinam binoning eng go'zal shahrimiz jamoli-mumkin. Shunda loyi-rahmatlar aytishni unutmang!

Sog' yurak - tog' yurak

Men G. Krasniskiy nomidagi Bolalar va o'smirlar sport maktabi jamoasi a'zosiman. Har yilgi yozgi ta'til menda unutilmas taassurot qoldiradi. Chunki har yili Toshkent viloyatining Parkent tumanida joylashgan so'lim «Qizilsoy» oromgohida dam olamiz. Bu yilgi dam olishimiz esa aynan futbol bo'yicha jahon chempionati yakuniga to'g'ri keldi. Shuning uchun yotoqxonamizga televizor o'matildi. Bu bejiz emas, albatta. Qanday qilib bo'lajak futbolchilar jahon chempionatidan bebahra qolishi mumkin axir?! Har bir o'yindan so'ng o'yinchilar harakatlarining muhokamasi bir necha kun davom etardi.

Erta tongdan esa yugurish, koptok tepish, sakrash kabi mashqlar boshlanardi.

«Qizilsoy» havosining mu-saffoligini aytmaydizmi?!

Ariqlarning tubidagi barcha toshlar ko'z o'ngingizda namo-yon bo'ladi.

Mevali daraxtlar ham juda ko'p. Atrof to'la shig'il-shig'il sap-sariq tog' olchalari, turli olma navlari, noklar. Rosti, barcha darmondorilarni yetarlicha iste'mol qildik. Rahbarimiz Baxtiyor aka Nuraliyev har birimizning to'laqonli hordiq chiqarishimizni qat'iy nazorat qilib bordilar. Ya'ni, bizda hamma narsa: mashqlar, cho'milish, mutolaa, o'yinlar, hatto uyqu ham me'yorida bo'lishi zarur. Kech turganlar yo kechki diskotekadan mahrum bo'lal-dilar yoki belgilangan vaqt-gacha yugurishi kerak bo'lar-di. Oromgohdagi boshqa guruh bolalari bizga havas bilan qarashardi. Chunki nomimiz «Paxtakorchilar» edi-da. U yoq - bu yoqqa o'tsak ham, «Baribir sport-chilar boshqacha-da! Bo'ylarining balandligini qarang!», deb qo'yishardi.

Bo'yimizning balandligiga sabab bor-da. Har kuni turnikda kamida 20 marotabadan tortilamiz.

Ota-onalarimiz yangi chop etilgan «Inter futbol», «Futbol ekspress», «O'zbekiston futboli» kabi gazetalarini yetkazib turishdi.

Xullas, bu yilgi yozim ham esda qolarli va mazmunli o'tdi, desam xato qilmagan bo'laman.

Jamshid SUYUNOV,
poytaxtdagi 122-maktabning
7-«V» sinf o'quvchisi.



BIRINCHI MUCHAL

Tengdoshingiz Majidbek Negmatov poytaxtimizdagi 110-maktabning 6-«Y» sinfida o'qiydi. Yurtimiz 15 yoshga to'lgan kunlarida Majidbek muchal to'yini nishonlaydi. Uning buvijoni Shoir opa ko'p kitoblar o'qiganidanmi, nabirasining ham kitobga mehri baland. Chunki kitobdan ajoyib do'st, yaxshi suhbatdoshni topib beradi-da buvijonisi!

—Siz 5-muchalingizni, men 1-muchalimni nishonlayapman. Muchal yoshimiz bizga omad keltirsin, - deydi bolakay.



Bolajonlar! Kim askar bo'lishni istamaydi?

Bilamiz, Siz ham ularga o'xshab chin o'g'lon bo'lishga havas qilasiz. Chunki askarlar o'z qasamyodlariga sodiq holda yurtimiz tinchligi, osoyishtaligini saqlaydi.

Istiqlolimiz tantanalari arafasida Toshkent viloyatining Yangiyo'l shahrida xizmat qilayotgan yurtimiz posbonlarining hayoti hamda ularga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdik. Abu Rayhon Beruniy nomli Texnika universiteti qoshidagi akademik litseyda ham bo'lib, talabalar bilan uchrashdik.

Hamrohimiz Toshkent viloyat hokimligi ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Suyar aka Qurbonqulovdan Yangiyo'l tumani, shahri haqida ko'p narsalarni bilib oldik.

Ayni kunlarda yurtimizning qay go'shasiga qadam qo'ymaylik, u yerda yangilanish va yuksalishning guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, askarlar bilan uchrashganimizda onalarcha mehr qalbimizni chulg'ab oldi. Saflari metindek, o'z yurtlari uchun

Yurt posbonlari

ko'ksini qalqon qilishga shay

akajonlaringiz odobi, Vatanga sadoqatidan quvondik. Ularga O'zbek Milliy Akademik drama teatrining iste'dodli aktyori Tohir Saidovning yurt muhabbati tabrigi va ichakuzdi hangomalari ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi.

O'z ishinig qiyinchilig-u nozik sirlariga ko'nikkan mayor Farhod Egamberdiyev 23 yildirki Qurolli kuchlar safida xizmat qilar ekan. Armiya hayoti insondan bardosh va mardlikni talab etadi. Bu fazilatlarini o'zida jo qilgan inson ko'p millatli askarlarga hamisha otalarcha mehr bilan boqadi. Biz ular orasida harbiy kiyimdagi qizlarni ko'rib, dastlab hayratlandik ham. O'zini Dilnura Otajonova deb tanishtirgan bu tirishqoq opangiz 2004-yildan buyon harbiy qism aloqachisi bo'lib ishlar ekan.

—Ishim o'zimga juda yoqadi. Bu yerdagi tartib-intizomga allaqachon ko'nikib ketganman. Hatto ko'chada ham harbiycha yurishlarimni sezib qolaman.

GO'ZALLIKKA BURKANGAN

Yangiyo'l shahriga ko'rk berib turgan binoga ko'zimiz tushdi-yu, uning ilm dargohi ekanligini darhol angladik. Atrofi gul-u gulzor bilan o'ralgan, ko'mko'k maysalar bilan qoplangan binoning har bir qarich yeri e'zozda ekanligidan mamnun bo'ldik. Ushbu dargoh 1999-yilda tashkil etilgan bo'lib, bu yerda 451 nafardan ortiq talaba tahsil olishar ekan.

Ta'lim dargohida kompyuterlar bilan jihozlangan fan kabinetlari, shinamgina kutubxona, sport-sog'lomlashtirish to'garaklari borligi va o'ziga xosligi bizni quvontirdi. Ilm maskanimizda «O'zbekiston Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni sohibasi Aziza Mirzaahmedova, «Do'stlik ordeni» nishondori Solijon Boymatov, Saidahmad Umarov, Risolat Qurbonova kabi 40 nafardan ortiq malakali o'qituvchilar mehnat qilishadi. Ularning o'z kasblariga sadoqati tufayli har 10 nafar o'quvchidan 7 nafari albatta oliy o'quv yurtlarining talabalari bo'lishmoqda. Jamshid Siddiqov, Soniya Foziljonova kabi a'lochilarimiz maxsus grant asosida talaba bo'lishdi. Maskanimizda ijodkor yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning ijod namunalaridan saralab, «Uyg'onayotgan gul», «Tong shamoli», «Ko'nglim quyoshi» nomli to'plamlar chop ettirdik. «Ziyo» nomli gazetamiz esa akademik-litseyimiz hayotining ko'zgusidir, - deydi, ta'lim dargohi rahbari, texnika fanlari nomzodi, shahar kengashi deputati Rayim aka QARSHIYEV.

Yurgan daryo, deganlari shu-da! Bir kunlik safarimiz yurt tinchligi, yaratish va yashnatishdagi yurt odamlarining xayrli ishlarini qalbimizga muhrladi. Vatanimiz posbonlari bor ekan, osmonimiz musaffo, bilim cho'qqilarini zabt etish uchun imkonlarimiz yetarli!

Ma'mura MADRAHIMOVA,
Jamila ERDONOVA.

Dildor ALIMBEKOVA, «Tadbirkor ayol» O'zbekiston ishbilarmon ayollar Assotsiatsiyasining raisi:



- Men bir qizaloqni bilaman. O'zi juda kichik bo'lishiga qaramay, o'ta uddaburon. Odmi ko'ylaklar, kofta va yubkalardan qimmatbaho libos yaratadi. Munchoqlar, ko'zchali toshlar va rang-barang shoyi iplar yordamida mo'jizalar yaratadi. Unga boqib, demak, tadbirkorlik, ishbilarmonlik murg'aklikdan shakllanar ekan-da, degan xulosaga kelasan kishi. Yoshlarimizning nafaqat o'qish, balki uqishlarini ham tilagan bo'lardim. Hayotda epli bo'lib, yo'qdan bor qilishni, bilim va ko'nikmalarni ishga solib, ISHBILARMON, TADBIRKOR bo'lishlarini tilayman. Mustaqillik ochib bergan imkoniyatlardan ko'proq foydalaning, aziz yoshlar! Bekam-u ko'st yashashning siri - harakatda.

Tabrik

Eron Islom Respublikasining O'z Respublikasidagi elchixonada huzuridagi Madaniyat ishlari Vakolatxonasi raisi Abbosali VAFOIY janoblari:

- O'zbekiston Respublikasining 15 yillik istiqlol bayrami munosabati bilan o'zbekistonliklarni o'z nomim va Eron xalqi nomidan chin dildan qutlayman. Bu aziz Vatanning aziz xalqiga sarafrozlik, baxt-saodat, omad yor bo'lsin. Yurtning kelajagi bo'lmish yosh avlodga eng samimiy va ezgu niyatlarim, tilaklarimni bildiraman. Ular istiqlol so'zining asl ma'nosini chuqur anglagan holda taraqqiyotning eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilishiga hissa qo'shishadi, degan umiddaman.



BIRINCHI QO'NG'IROQ

Maktab boshlanar bugun,
Qalbimda his-hayajon.
Kechga qolmaylik yana,
Tezroq bo'ling, ayajon.
Ustozlarim ko'rishga,
Oshiqaman, shoshaman.
Bilim, hunar o'rganib,
Dovonlardan oshaman.
Negadir tez-tez urar,
Mittigina yuragim.
Har bola maktab tomon,
Talpinsin, shu tilagim.

Zulfizar ESONTURDIYEVA,
poytaxtdagi 12 - maktabning
6 - «A» sinf o'quvchisi.

QISHLOG'IMNING NOMI SHUNAQA

Assalomu alaykum, aziz tahririyat xodimlari! Gazetaning o'tgan sonlaridan birida she'rimni ko'rib, rosa quvondim. Uni tuman gazetasiga olib borsam, she'r yozish qoidalariga amal qilmagansan, deb qaytarib berishdi. So'ngra, ikkilanib sizlarga she'rlarimdan namunalar yuborgandim. Oradan hech qancha vaqt o'tmay, she'rim «Tong yulduzi» gazetasida chop etildi. Ayniqsa, she'rimning tagidagi qishlog'imning nomini ko'rib, xursand bo'lib ketdim. Sababi, tuman gazetasi xodimlari qishlog'imiz nomini gazetada chiqarib bo'lmaydi, nomi g'alatiroq, odobga ham to'g'ri kelmaydi, deyishgandi. Qishlog'imiz juda uzoq tarixga ega. Shuning uchun bu haqda keksalar ham faqat taxmin bilan ayta olishadi, xolos. Bunga qishlog'imizdagi Qilichburxon ota maqbarasi haqida so'rab-surishtirganimda, amin bo'lganman. Maqbaraning qachon va qay tarzda barpo etilganini hech kim aniq aytib bera olmadi. Nihoyat 83 yoshni qarshilagan, qator yillar qishloq maktabida o'qituvchi bo'lib ishlagan Odoshali Rasulovga murojaat qilganimda, ayrim ma'lumotlarga ega bo'ldim. Maqbara salkam yetti yuz yillik tarixga ega ekan, qishlog'imizning nega bunday nomlanishiga kelsak, bu to'g'rida rivoyat va afsonalar bisyor ekan...

Qachonlardir bir yo'lovchi qishlog'imizdan o'tib ketayotib, juda toliqibdi va to'nini yerga to'shab, shu yerda biroz tin olgach, yana yo'lida davom etibdi. Yo'lining ancha qismini bosib o'tgach, boyagi o'tirgan joyida to'ni qolib ketgani yodiga tushib, ortiga qaytibdi. Qaytib kelib qarasa, haligi joydagi to'n g'oyib bo'lganmish. Shundan keyin bu yerlarni «To'n qo'yma», deb nomlashgan ekan. Keyinchalik xalq tilida o'zlashtirilib, Cho'ngqayma, deyilgan ekan...

Ikkinchi afsona esa sal boshqacharoq. Qishloq yonidan kattakon - Qoradaryo oqib o'tgan. Bir paytlar bu daryo toshib, yon atrofdagi Guliston, Maslahat hamda Baliqchi tumani markazi ham butunlay suv ostida qolib ketgan ekan. Faqat bizning qishlog'imiz tog' cho'qqisiga o'xshab cho'nqayib, suv bosmay qolgan ekan. Shu voqeadan so'ng bu yer Cho'qqayma deb, keyinchalik Cho'ngqayma deb nomlangan ekan...

Xullas, qishlog'imning nomi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, men mana shu qishloqda tug'ilganimdan faxrlanaman.

Abdulaziz MAMADALIYEV,
Andijon viloyati, Baliqchi tumani.

Qishlog'ingiz tarixini bilasizmi?



Bugunning bolasi

-Abduhalil aka, avvalo sizni 2006-yil mart oyida Rossiyaning poytaxti Moskva shahrida o'tkazilgan «Zajgi svoyu zvezdu» nomli xalqaro tanlovda 1-o'rinni egallaganingiz bilan qutlaymiz.

-Rahmat. To'g'risi, sovrinli o'rin olganimdan ham ko'ra ko'proq katta sahnada Mustaqil O'zbekistonimiz hamda san'atsevar xalqimiz sha'niga

aytilgan samimiy maqtovlardan boshim ko'kka yetdi.

-Avval ham ko'rik-tanlovlarda ishtirok etganmisiz?

-Toshkent, Qarshi shaharlarida va Qozog'istonning Ostona shahrida o'tkazilgan ko'rik-tanlovlarda muvaffaqiyatli qatnashganman.

-Yutuqlardan quvonganingizda xayolingizdan nimalar kechadi?

-Qo'lga kiritayotgan yutuqlarim sababchisi bo'lmish ota-onamga, menga ta'lim bergan Hamza tumanidagi 155-maktabning fidoyi o'qituvchilariga, qolaversa, Hamza nomli musiqa kollejida saboq bergan ustozlarimga rahmatlar aytishni xayoldan

«TONG YULDUZI»NI YAXSHI KO'RAMAN,

-deydi Xalqaro tanlov g'olibi Abduhalil TOJIYEV.

U mustaqillik nasimidan bahra olgan, umidli yosh estrada xonandalaridan biri. Qalblarimizni istiqlol bayrami shukuhi qamrab olgan ayni kunlarda Abduhalil aka bilan dildan suhbatlashdik:



-Konservatoriyadagi mashg'ulotlar, ijodiy safarlardan bo'sh vaqtingizda nimalar bilan shug'ullanasiz?

-Musiqa tinglayman. Gazeta va jurnallar varaqlayman. Ayniqsa, bolalikdagi qadrdonim «Tong yulduzi»ni yaxshi ko'raman.

-Niyatlaringiz ham mo'ldir?

-Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin. Har bir san'atkorga el nazarida bo'lish nasib etsin.

Toshkent shahar,
Hamza tumanidagi
155 - maktab o'quvchisi
Nazokat MIRHABIBOVA suhbatlashdi.

o'tkazaman.

-Necha yoshda birinchi qo'shig'ingizni kuylagansiz?

-8 yoshimda maktab sahnasida kuylaganman. Mustaqilligimizning 4 yilligiga bag'ishlangan tadbirda «Ona Vatanim» nomli qo'shig'imni ijro etganman.

-Hozirda qaysi ijodkorlar bilan hamkorlik qilyapsiz?

-Izzat Xoliqov, Igor Rinxasovlar bilan.



QORAQALPOG'ISTONDA "HURRIYAT NAVOLARI"



Ellikqal'ada iqtisodiyotning barcha turlari ravnaq topib o'sib borayotgani, iqtisodiy yutuqlarga keng yo'l ochilganligi sababini bu yerda ma'naviyatga yuksak darajada e'tibor berilayotganligi, ma'naviyatning qadrlanayotganidan deb bilmoq kerak. Mazkur tumanda olis tariximiz ildizlariga tutash yuzlab qal'alarning bugungi ko'rinishi saqlanib qolgan. O'tmishimizdan bebaho ma'lumotlar beruvchi bu qal'alarga boqib, Ellikqal'ani ham mamlakatimizning ochiq muzeyi deyishimiz mumkin.

Abdulla O'RIPOV,
O'zbekiston Qahramoni.

IJODKORNING QAMCHISI-QARSAK



Bir kitobda o'qigandim: Qadimda shohlar bu bozorga, bu mozorga... va bu shoir-yozuvchiga deb har xil bahonalar bilan ehsos ulashib turgan ekan. Qolaversa, faqat qalam uchida kun ko'radiganlarning boy bo'lib, ko'zga, so'zga tushib ketganini hali-hanuz ko'rganim yo'q. Ular xalq bilan barobar, dardi - dardim, quvonchi-quvonchim deb yashaydilar. O'rtahollik mo'min-musulmonga xos. Payg'ambarimiz s.a.v. ham «Har borada o'rtahol bo'linglar», deb bejiz aytmaganlar. Holbuki, o'zlari ham Ollohning irodasini, Qur'on-u hadislar bilan bizga yetkazgan ijodkordirlar.

Qoraqalpog'istonning Ellikqal'asida yurib, negadir qayta-qayta shu haqda o'yladim. Bunga sabab, bizga ko'rsatlayotgan hurmat-u ehtiromlardandir. Balki, o'zbek birodarlariga qoraqalpoq kitobsevar va san'at ixlosmandlarining qon-qardoshlik rishtalari nechog'lik bog'liqligi ifodasidir?

Sahrosi osmondek yastanib yotgan cho'listondan birdan asriy gujumlari shovullagan soya-salqin chamanzor chiqib qolsa, dastlab tushimmi, o'ngimmi, deb qolishingiz tabiiy. So'ng, jazirama o'tob o'stada, qaqragan zamin ustida bunday bog'-rog'larni bunyod qilgan INSONga ta'zim qilasiz va deysiz: «Nega bizlar ayrim paytlarda yer talashib, joy talashib mashmasha qilib yotamiz? Ollohning o'zlashtirsa, yashash uchun o'ziga mos go'sha qilsa, yetarli manzil-makonlari ko'p ekan-ku, axir?»

Qoraqalpog'istonda meni qoyil qoldirgan narsa - har kim o'z vazifasi bilan mashg'ul ekanligi bo'ldi. Birmuncha rahbarlik lavozimimdan anglaganim - har kim o'z vazifasini sidiqdildan bajarsa, olam guliston. Rahbarning topshiriqlariga «xo'p bo'ladi», desa va ana shu «xo'p bo'ladi»larni ijrosiga kirishsa har borada ilgirilash bo'ladi. Bobom rahmatli ketmon dastani oldingizga qo'yib, «Shu sizning boshlig'ingiz deb tanishtirishsa ham o'shanga itoat qiling», degandilar. O'shanda bu so'zning ma'nosiga yetmagandim. Endi esa, o'qib, uqib ko'rsam, hatto shu mavzuda hadislar ham bor ekan...

SHOIRGA HAYKAL



Ellikqal'a tumani hokimi Ne'matilla Xudoyberganov (tengdosh ekanimiz, samimiyati, oddiyligi o'z sinfdoshlarim bilan uchrashgandek, ismini atab murojaat qilishimga imkon berdi) ta'bi nozik ijod ahlining har damidan unumli foydalanish uchun harakat qildi va buni uddaladi ham. Axir, kimsan, O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripov ijod ahliga bosh bo'lib kitob yarmarkasi-yu Milliy

Kurash musobaqasini ochib bersa va g'oliblarga sovrinlar topshirsa, qanday yaxshi!

Ayniqsa, «Toza-bog'» ovulidagi neft mahsulotlari shahobchasini ochish xalq shoiriga katta zavq-shavq bag'ishladi. Axir bu yerdan faqat fermer xo'jaliklariga yoqilg'i tarqatilarkan-da.

«Sizda madaniyat, ma'rifatga qanday munosabat?», deyishsa, birgina javobim: «Bizda shoirga haykal qo'yilgan!»

Olqishlar ostida aytilgan bu so'z biroz hazin kayfiyatda turgan ijodkorlar ko'nglini ko'tarib yubordi. Chunki ular Bo'ston Akademik litseyida O'zbekiston Xalq shoiri Muhammad Yusufning byusti ochilishi guvohi edilar-da.

MAKTABDA UMID GULI

«Guldursun» qishlog'ida 43 -maktab, «Qirqqiz» qishlog'ida 45-maktablarning ochilishi ham katta



tantavorlik kasb etdi.

Ko'zlarim hayajondan shu'lalanib turgan damda, ya'ni, «Ustozga ehtirom» yodgorligi poyiga gullar qo'yilayotganda bu ozod va obod damlarimizga ming shukurlar qilardim.

Haykalga qarayman: Ustoz o'z shogirdi bilan olg'a

*Guldan gulga qo'nib sahar palladan,
Bolari bol yig'ar qirdan, daladan.
Shoir ham bolari bo'lsaydi agar,
Ishin boshlar edi Ellikqal'adan.*



qadam tashlashga chog'lanib turibdi. Bor imon-ixtiyorini zahmatkash «opoy»ga topshirgan kelajak avlodidan umidimiz katta. Bu umid guli albatta maktabda unadi. Demak, maktabga e'tibor kerak. Beixtiyor Ellikqal'a tumani hokimi yo'l-yo'lakay suhbat jarayonida aytgan gaplar xayolimda aylandi:

—121 ming aholi istiqomat qiladigan tumanimizda 71ta maktab, 5ta kasb-hunar kolleji, 1ta akademik litsey, 7ta iqtidorli bolalar maktabi bor. Ulardagi 28 mingga yaqin o'g'il-qizlarga ikki yarim ming ustoz ta'lim-tarbiya bermoqda. O'rta ta'lim maktablarining 59 tasida o'qish o'zbek, 2tasida qoraqalpoq, 4tasida qozoq, 1tasida turkman, 1tasida o'zbek va turkman tillarida olib boriladi.

Hokim buva ta'lim maskanlarining har biriga qadam ranjida qilgan, qurilishi, ta'mirlash ishlarida bosh-qosh bo'lgan. Shuning uchun ham hashar yo'li bilan qurilgan 7ta maktab deysizmi, ularda tashkillangan turli to'garaklarni, hamma-hammasini yodidan aytib beradi.

Beixtiyor shoirming «Egasi bor yurtning ertasi bordir», degan jumalari xayolimga keladi. Rahbar aytganini qilib, yo'rig'idan-yurish insoniyatni olg'a siljitadi. Gap o'sha rahbarning qandayligida, orzu va maqsadlari eziguligida qolgan. Bu borada tumandagilarning peshonasi yargiragan ekan. Qolaversa, respublikamizda 180ga yaqin tuman bor. Ularning Ellikqal'a tumanidan ham iqtisodiy, ham ekologik ustun taraflari bor bo'lishi mumkin. Lekin nega u yerlarda bunday anjumanlar an'ana tusiga kirmagan? Yurtboshimiz «Xalq orasiga kiring, san'atga adabiyotimizni targ'ib qiling», odamlar qanday va nima maqsadlar bilan yashashi kerakligini anglatib», deb turgan bir paytda, nega ular orzulab kutiladigan, katta bayram tusini oladigan mana shunday anjumanlarni uzluksiz o'tkazishmayapti?..

«Orol bolalari» sog'lomlashtirish oromgohida

o'qilgan she'rilar bolalarning kuy-qo'shiqlariga ulanib ketdi. Tuman markazidagi muhtasham madaniyat saroyi, Amfiteatr yuksak ma'naviyatli

odamlarning qardron maskaniga aylangan ekan... Qoraqalpog'iston respublikasi Vazirlar Kengashi raisi Bahozir Yangiboyev ta'kidlaganidek, «Hurriyat navolari»ning ohanglari asrlar osha dillarga g'urur solib yangrayveradi.

«Qirqqiz» va «Guldursun» ovullaridagi maktab binolari ochilishi ham katta tantanaga aylandi.

Yangi maktab-yaxshi maktab. Zamon bilan barobar qadam tashlaydigan bolalarga mos maktab!

Istagimiz, tarixan va tadrijan ilimga qurilgan birinchi bino- MAKTAB ekan, yangi ochilgan, bo'yog'i qurimagan bu o'quv maskanlaridan ham yurt koriga Yaraydigan asl insonlar yetishib chiqsin.

LAYLAK KELDI...



«Toza bog'» ovuliga Ark qurishibdi. Uning ustiga o'ppoq laylak qo'ndirishibdi. Sahroga laylaklar qo'nmaydi, deyishadi. Vodi y qushi-laylakning Arkda o'tirishi yaratuvchi dehqonga qo'yilgan haykaldir aslida! —Bosh Mustaqillik maydonimizdagi Ezgulik Arkidan bu yerda bitta laylak kelib qo'nibdi!

Abdulla Oripovning hazil aralash aytgan so'zlarida olamcha ifoda bor edi. Qoraqalpoq, turkman, o'zbek,

rus... Qator millatlar tenglikda yashab, umrguzaronlik qiladigan makonda yaratish va yashnatish ishlari avjida! Amudaryo birmuncha to'lib oqayotgani, Orolga suv quyilishining yana yangi va umidbaxsh rejalari amalga oshayotgani aniq.

Istiqlol yillarida Ellikqal'ada yaratilgan yangiliklarni o'z ko'zim bilan ko'rib, o'n besh yil buyuk o'zgarishlarga sabab bo'lganligini his qildim.

«Biz mustaqillik avlodlarimiz» deb o'ynab turgan, tinchlik, tenglik va ozodlikdan kuylab yurgan kichkintoylarni suhbatga tortdim.

USTOZGA HURMAT, KITOBGA MEHR, VATANGA, ONA ZAMINGA SADOQAT RUHI balqib turadi hatto shu jazzi bolakaylarda!

MEN KO'RGAN SAMIMIYAT



—Bu sahrodan uch metr qumni olib tashlasangiz, qadimiy shahar, ilk ajdodlarimiz yashagan go'sha ochiladi. Ajab emas, ana shu kunlar kelsa biz ham ko'rsak! -dedi uzoqni ko'zlab manzili chamanlarga eltuvchi tomonlarga yo'l boshlagan hokim buva.

Beixtiyor men, Beruniy bobomizga bitta tosh keltirib, «Buni siypalasangiz yomg'ir yog'adi», deganlarini esladim. Shunda bobomiz: «O'zingiz ko'rsatib bering, gapingiz rost bo'lsa, bor boyligim, yiqqan kitoblarimni sizga hadya qilaman», debdilar. Ammo ular harchand urinishmasin, mo'jiza sodir bo'lmabdi.

—Bu tosh o'z joyida karomatini ko'rsatsa kerak, deb bobomiz ularni yupatgan bo'libdilar-da, hech qachon mish-mishlarga, g'alati voqealarga emas, balki rostlikka, bilimga ishonishlarini aytibdilar. Men ana shunday rostlik va samimiyatni olim-u allomalarni bunyodga keltirgan Qoraqalpog'istonda ko'rdim.

«Daryolar - irmoqlardan, do'stlik - tabassumdan boshlanadi», deganlaridek, uch kun davomida tabassumli odamlar orasida yashadim. Shoirga haykal qo'ygan, har yili vatandoshlari Otajon Xudoyshukurovdek iste'dod sohiblari hurmatini o'rniq qo'yayotgan, adabiyot va san'at ahlini chorlab, ma'naviyat uchun qayg'urayotgan tuman darg'alariga mehrim oshdi.

BU HAM BIR ORZU...

Hayotdan zavqlanib, adabiyot va san'atga do'st tutinib yashaganlar o'z vazifasini ilhom bilan uddalaydi. Mana 15 yoshli mamlakatimizda hur-hur shamollar esib qoldi. Buni ijod ahlini bejiz siylashmayotganidan ham bilish mumkin. Yaqin-yaqinlargacha shoir va yozuvchilar pul ko'tarib, asarlarini chop ettirish yo'llarini izlab yurishardi.

Endi esa ayrim nashriyotlar yaxshi asarlarni chop etish niyatida el suyan ijodkorlarning ortidan yurishibdi. Demak, ijod ahliga, iste'dod egalarga alohida e'tibor bor.

Bir orzu-da, bu ham: Mamlakatimiz siyosatini, tinchlikparvar g'oyasini bolalarga bola tilida yetkazadigan «Tong yulduzi» gazetasini ellikqal'alik hamma bolalar o'qisa va faol muxbirlarimizga aylanishsa qani edi!

Hofizini e'zozlab qo'shiq bayramlari o'tkazayotgan, shoirining hurmatini joyiga qo'yib, haykal o'rnatayotganlar, yosh avlod kitob o'qishga MEHRni o'z GAZETAsi orqali boshlashini yaxshi bilishadi. Men Bosh muharrir sifatida «Tong yulduzi»ga bolalarni yoppasiga bepul obuna qilish an'anasi ham shu yerdan boshlanishiga ishonaman.

O'ZLIKNI ANGLASH

Mehr, oqibat, o'zlikni anglash haqida gap ketganda, bir afsona yodga tushadi:

Qadim zamonda xayr-saxovatli, adolatparvar bir chol yashagan ekan. U o'zidan yordam so'rab kelgan odamni quruq jo'natmas, qo'lidan kelgancha ko'maklashar ekan. Cholning uch o'g'li va ularga atalgan ikki hovli - joyi bilan bir bog'i bor ekan. Bir kuni chol:

—O'g'illarim, men endi qaridim. Tirikligimda bog' va hovlini sizlarga topshirmoqchiman. O'zaro kelishib, bo'lishib olinglar, -debdi.

O'g'illari kelisha olmasdi. Hammasi bog'ni talab qilishibdi. Shunda chol:

—Kimki dunyo kezib, menga eng qimmatbaho toshni olib kelsa, bog'ni o'shanga beraman, -debdi.

Olti oydan so'ng to'ng'ich o'g'il yoqut tosh bilan, o'rtancha o'g'il esa billur tosh bilan qaytibdi. Chol ularning qo'lidagi qimmatbaho toshlarni e'tirof etib: «Endi ukangizning kelishini kutaylik-chi», debdi.

Endi gapni kenja o'g'ildan eshitib. U uzoq yo'l bosib, ko'rmaganlarini ko'ribdi, faqat qimmatbaho toshni topolmabdi. Uyga umidsiz, tushkun qaytib kelayotgan ekan, yo'l ustidagi eski kulbada yig'i-sig'i ovozlari eshitilibdi. Yigit mo'ralasa, uch-to'rt yosh bola ota-onasi bilan o'rtada o'lib yotgan sigir ustida g'am chekishayotganmish. Kambag'alning so'nggi chorasini bo'lgan sigirning o'limi katta kulfat ekanligini anglab yetgan kenja o'g'il bu oilaga katta bir sigir olib beribdi. Bunday muruvvatdan boshlari ko'kka yetgan oila a'zolari yigitni quchib, ko'z yoshi to'kishibdi.

Kenja o'g'il otasi huzuriga kirib kelar ekan: —Men qimmatbaho toshni topolmadim, -debdi. Ziyarak ota esa o'g'lining yelkasida yonayotgan minnatdorchilik yoshlari zar-inju toshlarni allaqachon payqab olgan ekan. Shuning uchun ham quvonib, «Ey o'g'lim, men izlagan tosh - sening yelkangdagi umringni bezatuvchi sevinch yoshlari-ku. Bundan-da qimmatroq nima bor dunyoda!», debdi. Shunday qilib, ota go'zal bog'ni muruvvatli, adolatparvar kenja o'g'liga sovg'a qilibdi.

Men nega keltirdim bu afsonani? Siz ham o'zligingizni anglang demoqlik uchun!

O'zgalar g'amida yonmoqlik o'zlikni anglatmoqlikdir. Qoraqalpog'istonda O'zlikni anglagan qardoshlarimiz yashar ekan. Biz bundan g'ururlandik.

Umida ABDUAZIMOVA.

Aziz o'quvchilar, she'riyat ixlosmandlari!
Tengdoshingiz Jaloliddin Boytemirov ham she'rlar
mashq qiladi. Hatto ularga moslab rasmlar ham
chizadi. Uning she'rlarida beg'ubor bolalik
kechinmalari, maktab hayoti, Ona, Vatan, yurt, istiqlol
kabi yuksak mavzular o'zining samimiy ifodasini
topadi. Mana, ulardan ayrimlarini Sizning
e'tiboringizga havola etmoqdamiz.

ISTIQLOL

Mangu yasha, Istiqlol,
Senga bo'lsin sharaf-shon!
Baxtiyor hur Vatanda,
O'smoqdamiz sho'x-shodon.
Istiqlolga ming shukur,
Charaqlasin iqboli.

Ilm olib biz yoshlar,
Bo'lamiz yurt kamoli.
Vatanim - chamanzorim,
Senga fido bu jonim.
Qalbimda mangu yasha,
Jannat - O'zbekistonim!



Ishyoqmasning holiga voy,
Ish buyursa qilar dod-voy:
Ishlashga hali vaqt bor,
O'ynab olay yana takror.

Onasiga ko'maklashmay,
Doim deydi: «Yo'q, yo'q».
Bir koyisa shu zahoti,
Ko'chaga uchar go'yo o'q.

Har kun topar bahona,
Yo'q menda hech dugona.

ISHYOQMAS

Dugonaga ne hojat,
Ishlasang bo'lar albat.

Buvim qilar nasihat:
So'zida ma'no qat-qat.
«Ish - ishtaha ochar,
Dangasa ishdan qochar».

Shundan so'ng dangasa qiz,
Serg'ayrat bo'lib qoldi.
Do'stlari ham ko'payib,
Yordamga kelib qoldi.

Jaloliddin BOYTEMIROV,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
74-maktabning 4-sinf o'quvchisi.

O'ZBEKISTON BOLALARIGA

Do'stlar, O'zbekiston bag'rida bu kun,
Har bola sanalur Vatan dilbandi.
Go'zal bayraming-la qutlayman mamnun,
Ey dilbar, o'lkaning erka farzandi.

Shu murg'ak yuraging zavqlarga to'lsin,
Parvoz et misoli tinchlik kaptari.
Eng go'zal so'zlardan iborat bo'lsin,
Beg'ubor damlarning oltin daftari.

Mansur JUMAYEV,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi
18 - maktabning
8 - «A» sinf o'quvchisi.

YASHASH IMKONI

Ko'ksimni ochaman go'zallikka,
Odamlarga ochaman hadiksiz.
Yashashni istayman yonib-entikib,
Vatanim, men uchun go'zallik - siz.

Ko'ksimni ochaman og'riqlarga,
Nasibadan yuz burish qiyin.
Ko'ksimni ochaman kuz yo'qlagan,
Og'ochlarga,
Qorlarga,
Keyin...

Ko'ksimni ochaman: gul ushlagan,
Dildor yashar - yashnaydi sevgim.
G'azabim cheksizdir urushlarga,
Tinchliksevar Vatandir Ko'ngil.

Sobir JABBOR.

O'ZLIK

Borliqqa yoyilar yangi kun rangi,
Sezilar xushnafas yo'llar borligi.
Vatan! Tarovating shu qadar rangin,
Qanday soz bag'ringda gullar borligi.

Kengligidan yayrab ketgay osmon,
Qushlarga dars bergay xushhol.
Tiriklik...
Lolagun quyoshni bag'ringa bosaman,
Tani-joning sog'mi, jonajon sherik?

Quyoshim, sen uchun hozirman jangga,
Har kuni jo'sh urgay sarbadorligim.
O'zbekim! O'zlikni otingga o'ngar,
Yo'lda yo'q umidlar yaradorligi.

Ming bitta jonimning qatra qonidan,
Men Vatan dardiga yasayman malham.
Hushyor turishim shart - Tongning yonida,
Quyoshni qo'riqlash uchun ham mahkam.

YOZILMAGAN KITOR

(Boshi o'tgan sonlarda).

Men sizlarga Abrorni qanday qilib gugurt topib olgani, uni tomga xashak tashlagani chiqqanida
cho'ntagidan olib yoqqani, keyin o'zi ham olov ichida qolib ketib, zo'rg'a pastga tushib olganini
aytmayman.

Aytsam, akalari bilib qolib, Abrorni sog' qo'yishmaydi. O't
o'chiruvchilarga ham «Tomni Abror yoqmadi», deyishdi.

Men sizlarga buvim uxlata turib:
tag'in ajina, jinlarga uchramagin»,
ketsa tushingda ham
yuraverasan.

... Yarim
endi maktabga

kechasi buvimning eshigi taqillabdi. Buvijonim o'shanda Abrordek
chiqqan ekanlar. Uyg'onib ketibdilar. - Ishqilib, tinchlik bo'lsin-da!

Qarindoshlarimiz sog'-salomatmikin? - deb qo'rqib turishganmish uydagilar.
- Kimsan? - deb yo'talib, qayta-qayta yana «Kim? Kimsan?» - deb borib eshikni ochishibdi. Bemahalda
birov chaqirsa «Ha», «Labbay», «Menman» demagin. Ajinalar og'zingni qiyshaytirib ketadi. Sen «Kimsan?»
deya chiqqin, deb ham aytgandilar dedi.

-Ninamiz sinib qoldi, nina berarkansiz, deb turganmish eshik oldida Zamira degan qiz.

-Yarim kechasi ninada nima tikasan, deb so'rashsa, indamasmish.

-Xo'p-xo'p, hozir beraman, - deb uydin nina olib chiqishibdi-da va Zamirani uyiga olib borishibdi. Hamma
uxlab yotganmish. Zamira esa hech narsa bilan ishi yo'q, issiqqina o'rniga kirib, yana pishillab uyqusini davom
ettiraveribdi.

(Davomi bor).



Umida ABDUAZIMOVA.

NINA SO'RAB KELGAN QIZ

Jannatmakon yurtimizning bugungi chiroyiga ko'z tegmasin. Shahrimiz ko'chalari bo'ylab ketyapman-u, yo'l chetiga ilingan rangorang chiroqlar, tasmalar, chamandek ochilib yotgan chiroyli gullarni ko'rib, ko'zlarim quvnayapti. Shundanmi yoki bayram shukuhidanmi, ko'tarinki kayfiyatda ishga kelsam, meni O'zbekiston xalq artisti, Abror Hidoyatov-nomidagi O'zbek Davlat drama teatri aktyori Afzal aka Rafiqov so'rab kelganini aytishdi. Ko'p sonli o'quvchilarimiz istaklariga binoan u kishini tahririyatimizga taklif qilgandik. Iltimosimizni yerda qoldirmay, kelishilgan vaqtda yetib kelganlari kamtarin bu san'atkorimizga bo'lgan hurmatimizni yanada oshirdi.

Afzal aka bilan bolalik orzulari, sahnadagi faoliyati haqida qilgan suhbatimiz o'z-o'zidan farahbaxsh bayramimizga ulanib ketdi.

-Aksariyat o'g'il bolalardan, «katta bo'lsang, kim bo'lasan», deb so'rasangiz, yo askar deydi yoki katta mashina haydayman, deydi. Siz bolalikda qay birini orzulagansiz?

-Unisini ham, bunisini ham emas. Bolaligimda... Keling, yaxshisi bir boshdan gapirib beraqolay:

1948-yilda Toshkent shahrining Komolon dahasida xizmatchi oilasida tug'ilganman. 34-maktabda 8-sinfacha tahsil oldim. Rus tilida o'qiganim uchun ham ko'p jihatdan o'zbek adabiyoti va madaniyatidan to'la ravishda bahramand bo'lmaganman. Shuningdek, o'sha davrdagi siyosat ham ma'lum ma'noda to'sqinlik qilgan. O'zligimni, o'zbekona ruhiyatni saqlab qolishimga oiladagi, avlodimizdagi muhit sabab bo'lgan deb o'ylayman. Dadam Azimjon aka yuridik fanlari nomzodi, ko'p yillar davomida Nizomiy nomidagi Pedagogika institutida dars berganlar. Onam esa uy bekasi bo'lganlar. Shunday bo'lsa-da, uyimizda hamisha adabiyot, san'at, nazm va navo nihoyatda qadrlanardi. Onam va xolalarim dutor chertib, xirgoyi qilishar, tog'alarim mumtoz qo'shiqlarimizni mohirona ijro etishardi. Bu mashqlar men uchun ma'naviy ozuqa vazifasini o'tardi. 5-sinfda o'qib yurgan chog'larimda o'zbek milliy asboblarga, xususan, rubobga ishqim tushgan.

Bir kuni tong sahar ayvonda oilamiz bilan choy ichib o'tirgandik. Men sozandalarga taqlid qilib, tasavvurimdagi rubobni chala boshladim. Bu mashg'ulotga shu darajada berilib ketganimdan piyoladagi qaynoq choyni ustimga to'kib, kuyib qolganimni ham payqamay qolibman.

Shu voqea sabab dadam Bolalar saroyiga olib borib, atqli san'atkor, mohir pedagog G'ulom aka Qo'chqorovga shogirdlikka berganlar. Musiqa maktabini bitirish arafasida hayotimda baxtsiz voqea ro'y berdi. Mehnat darsida taxta arralayman deb bexosdan o'ng qo'limning ikki barmog'idan ayrilib qolganman. Hayriyatki, mediator ushlaydigan qo'lim omon qolgan ekan, Mosartning «Rondo»si hamda Oginskiyning «Polonez»ini chalib, imtihondan muvaffaqiyatli o'tganim hali-hamon yodimda.

Keyin esa kasb tanlash muammosi oldimda ko'ndalang turardi. Maktabda aniq fanlarni yaxshi o'zlashtirganim uchun dadam Toshkent Aviatsiya texnikumiga o'qishga kirishni tavsiya qilgandilar. 19 yoshimda o'qishni muvaffaqiyatli tamomlab, Chkalov nomidagi Aviatsiya zavodiga ishga kirdim. Ammo yuragimdagi san'atga bo'lgan ishtiyoq tinchlik bermasdi. Bir kuni gazetada Toshkentdagi teatr institutida kino va drama aktyori mutaxassisligi bo'yicha qabul e'lon qilingani haqida xabar o'qib qoldim. Tasavvurimda aktyorlikka o'qib bo'lmaydi, buning uchun tug'ma iste'dod bo'lishi kerak, degan tushuncha mavjud edi. Buni qarangi, o'qisa bo'larkan. Darhol hujjatlarimni to'plab, institutga topshirdim. O'qishimni sirtqi bo'limda davom ettirib, akademik drama teatriga sahna ishchisi bo'lib ishga kirdim. Besh yil dekaratsiya qurib, ustoz san'atkorlarning sahnadagi xatti-harakatlarini kuzatib yurdim. Institutni tamomlagach, shu teatr truppasiga ishga qabul qilindim. Aktyorlik

Bizning mehmon

hayotim oson kechmadi. Tashqi ko'rinishim ovro'pa millatiga o'xshagani uchun ham milliy qahramonlar siymosini yarata olmasdim.

O'sha paytda yaratgan Plojnikov, Aleksandrov, Dolgov kabi rollarim ro'yxatidan ham payqash mumkin buni. O'zbekning siymosini yaratmay turib, o'zbek tomoshabinining yuragiga «kirolmasligim»ni yaxshi bilardim. Shuning uchun hatto teatrn tark etish niyatim ham yo'q emasdi.

Ammo yurtimiz mustaqilligi hayotimda katta o'zgarish yasadi. Teatrimiz A.Navoiy-

«MAS'ULIYAT BAYRAMI» DEGAN BO'LARDIM...



ning «Xamsa» asari asosida «Iskandar» nomli spektaklni sahna-lashtira boshladi. Mening ruhiy kechirmalarimni yaxshi bilgan rahbarimiz O'zbekiston xalq artisti Bahodir Yo'ldoshev pyesadagi bosh rolni menga topshirdi va ijodiy hayotimda katta burilish yasadi.

-San'atkor bo'lishni orzulab yurgan bolajonlarga nima degan bo'lardingiz?

-Aslida mening aktyor bo'lishimga ham ota-onam qarshi bo'lishgandi. «Aktyor bo'lsang-u, elning nazariga tusholmasang, intilishlaring befoyda», deyishgandi ular. Shuning uchun ham astoydil intilganman. G'alabalar zamirida tinimsiz, mashaqqatli mehnat yotarkan.

San'atkor bo'lish niyatda yurgan o'g'il-qizlar ishtiyoqlarida sobit bo'lishsin.

-Mustaqillik Siz uchun qanday bayram?

-Birinchi navbatda mas'uliyat bayrami, degan bo'lardim. Inson mustaqil hayot kechira boshlagach, o'zi bilan sodir bo'ladigan voqea-hodisalarga o'zi peshvoz chiqadi. Boshqacha aytganda, o'z boshiga yoqqan qorni o'zi kuraydi. Davlat ham xuddi shunday, o'zi bilan sodir bo'ladigan voqea-hodisalarga o'zi peshvoz chiqadi, muammolarini o'zi mustaqil hal qiladi. Bu esa o'z navbatida zimmamizga jiddiy mas'uliyat yuklaydi.

Yana, istiqlolni o'zligimizni anglatuvchi bayram ham degan bo'lardim. Avvallari kimligimizni ham unutib qo'yayozgandik. Hatto pasportlarimizdagi «millati» degan grafani ham olib tashlamoqchi bo'lishgandi. Istiqlol sabab ko'hna moziy, o'tmishimiz, ajdodlarimiz bilan oramizda uzilgan zanjir ulandi.

-Farzandlaringiz, nabiralaringiz orasida izingizdan borayotganlar ham bordir?

-Uch o'g'lim - Axror, Sardor, Sarvarlarning kenjasi hozirda san'at oliygohining televideniye rejissyorligi bo'yicha magistraturada tahsil olyapti. Nabiralari esa hali yosh. Dublyajda ovozimni tanib, dodajonim chiqdilar, deya qarsak chalib yuborishadi.

-«Tong yulduzi» o'quvchilariga tilaklaringiz.

-Insonni inson qiluvchi tafakkurdir. Shunday ekan, ko'proq kitob o'qishsin. Imkoniyat bor, sharoitlar bisyor, ishtiyoq bo'lsa bas. Millat kelajagini ham bilimga bo'lgan ishtiyoq hal qiladi.

-Maroqli suhbatingiz uchun rahmat!

Feruza JALILOVA suhbatlashdi.

ISTIQLOLGA TENG YOSHIM

Mana, so'nggi qo'ng'iroq sadolari ostida maktab ostonasini tark etganimizga ham 3 oy bo'libdi. Bu fursat men uchun juda ajoyib va sermazmun voqealarga boy o'tdi. Avvaliga 9 yillik qadrdon maktabim, ustozlarim, sinfdoshlarim bilan xayrlashish ancha og'ir bo'ldi. Lekin sinfdoshlarim bilan tez-tez maktabimiz bag'rida uchrashishga kelishib olganimizdan so'ng ancha yengil tortdim.

Hujjatlarimni O'zMU qoshidagi Sobir Rahimov nomli akademik litseyga topshirdim. Avvallari litsey, universitet o'qituvchilari juda ham qattiqqo'l bo'lishadi, deb o'ylardim. Ammo kirish imtihonlariga tayyorlanish jarayonida bu fikrim noto'g'ri ekanligini angladim. Ular qattiqqo'l, talabchan, shu bilan birga bag'rikeng va ochiqko'ngil inson ekanlar. Imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tdim.



Hali o'qishlar boshlanmay turib, ustozlarimiz bilan juda qadrdonlashib ketdik. Mehribonchiliklariga javoban a'lo o'qishga, ularga munosib shogird bo'lishga harakat qilaman.

Men istiqlol tengdoshiman. Yurtimiz mustaqilligining 15 yilligi nishonlanadigan yilda men ham 15 yoshimni qarshiladim. Bu esa zimmamga yana bir mas'uliyat yuklaydi. Ulkan zafarlar quchib, ko'plab ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritayotgan yurtim bilan barobar odimlashim, unga munosib farzand bo'lishim kerak.

Kelajakdagi orzularim mo'l, komil inson bo'lsam deyman. Tillarni mukammal o'zlashtirib, chet eldagi nufuzli universitetlarda o'zbek tilidan dars berishni istayman.

Fursatdan foydalanib, avvalo ona O'zbekistonimni, ustozlarimni hamda tengdoshlarimni ushbu she'rim orqali istiqlol bayrami bilan muborakbod etmoqchiman:

O'ZBEKISTON

Ey, aziz Vatanim, gulgun chamanim,
Go'zal va muqaddas ona zaminim.
Senga bo'lsin fido qalbim, jon-tanim,
Sen-la nurafshondir yorug' jahonim.
Mehr-u muhabbatga to'liq bog'laring,
Har qarich tuprog'ing ko'zga to'tiyo.
Hurlik, mustaqillik quyoshi porlab,
Yurtim osmonida taratar ziyo...
Doimo bayrog'ing ko'klarni o'psin,
Quchog'ing gullarga limmo-lim to'lsin.
Jonajon Vatanim - O'zbekistonim,
O'zbekim dovrug'ing dunyoni tutsin!

Dilafro'zbonu USMONOVA.

Istiqlol yil-matbaa va noshir-o'zgarishlar yuzning moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishi, matbaa muassasalarining zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanayotgani

etilayotgan kitoblar sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkonini bermogda. Buni siz chop etilayotgan yangi darsliklarda ham yaqqol ko'rib turibsiz.

Yaqinda Moskva shahrida bo'lib o'tgan III xalqaro «Kitob san'ati» ko'rgazma-tanlovida yana bir bor o'z tasdig'ini topdi. Ko'plab mamlakatlardan noshir va matbaachilar ishtirok etgan ushbu nufuzli xalqaro tadbirda Alisher Navoiyning «Xamsa» asari tanlovning «Hamdo'stlik» nominatsiyasi bo'yicha, «Zamonaviy O'zbekiston miniatyurasi» kitob-albomi esa «Kitobat san'ati» yo'nalishida oliy sovrinlar bilan taqdirlandi.

Buyuk bobomizning «Xamsa» asari O'zbekiston matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida chop etilgan. «Xamsa»ning to'ldirilgan ushbu nashri «Kitobat san'ati»da kam uchraydigan noyob badiiy bezaklar bilan

larida mamlakatimizda lik sohasida ham ulkan berdi. Nashriyotlar-

jilolangan.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr qilingan «Zamonaviy O'zbekiston miniatyurasi» kitob-albomida esa mamlakatimizda san'ati-shakllari, haqida ellikdan ichiga albom

O'ZBEK KITOBLARI - JAHON KO'ZGUSIDA

Xushxabar


miniatyura ning asrlar oshani nish bosqich-

istiqlol yillaridagi rivoji hikoya qilinadi. Ikki yuz ziyod miniatyurani o'z olgan ushbu salmoqli Sharq miniatyura san'ati jozibasi va estetikasini

o'zida to'la namoyon etgan. Unda bugungi o'zbek miniatyurachi musavvirlari eng sara asarlaridan namunalar keltirilgan.

Xalqaro ko'rgazmada «O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyotida chop etilgan o'n bir jildli Milliy ensiklopediya to'plami tanlovning «Madaniyatlar muloqoti» yo'nalishi bo'yicha uchinchi o'ringa munosib deb topildi.

Istiqlolimizning 15 yilligiga munosib tuhfa bo'lgan ushbu muvaffaqiyatlar noshir va milliy matbaachilikning xalqaro miqyosdagi yana bir e'tirofidir.



YETTI YOSHGA YETDIM MEN...

Men, G'ayratov Shahzodman. 7 yoshga to'ldim. Endi bog'chaga bormayman. Chunki yaqinda maktabga chiqaman. O'ziyam, bog'chada uxlatishlarini juda yomon ko'rardim-da. Mazza bo'ldi. Akam Shohruh bilan maktabga birga borib kelaveramiz.

Akam menga ham o'zbekcha, ham ruscha alifboni, sanashni o'rgatgan. O'zbekiston gimnini ham yod olganman. O'qish boshlansa, a'lochi o'quvchi bo'laman.



Mening go'sham

MAHALLAMIZ - G'AMXO'RIMIZ

Yakkasaroy tumanida joylashgan O'rikzor mahallamizda turli millat vakillari istiqomat qiladilar. Mahallamiz ozodaligi, saranjom-sarishtaligi ana shu inoqlikning samarasi, desam ishonaverim. Mahallamiz qoshida turli sport to'garaklari tashkil qilingan. Do'stlarim Sherzod, Jahongir, Akrom, Xayrullo, Dilshod bilan men ham futbol to'garagiga qatnayman. Murabbiyimiz Shukurullo Tolipovdan ushbu sport turining nozik sirlarini o'rganayapmiz. Jamoamiz bilan bir necha bor futbol musobaqalarida qatnashib, mahallamiz sharafiga himoya qildik. Yaqinda kompyuter to'garagining ochilishi mahalladagi yosh-u qariga bir olam quvonch hadya etdi. Mashg'ulotlar belgilangan dasturlar asosida olib borilmoqda. Internet tizimidan tezkor ma'lumotlar olishni, turli matematik jadvallar tuzishni qunt bilan o'rganayapmiz. Hademay yangi o'quv yili boshlanadi. Yozgi ta'tilda sport bilan muntazam shug'ullanib, sog'lig'imiz hamda bilimimizni yanada mustahkamlashga zamin yaratgan mahallamiz raisi - Noil aka Ilhomov boshchiligidagi faollarimizdan barchamiz mamnunmiz.

Avazxon VALIXONOV,
tumandagi 73-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi.



QISQAGINA MAKTUB

Ta'til mobaynida zerikkan maktab bolasi o'zining eng yaqin do'stiga xat yozishga qaror qilibdi. U o'zining yozuv stoli oldiga o'tirib yoza boshlabdi: «Salom Bob». U ozgina o'ylanib, yana yoza boshlabdi: «Senga xat yozishimdan maqsad, juda ham zerikdim». Shundan so'ng u ko'p vaqt o'ylanib o'tirib va nihoyat quyidagilarni yozibdi: «Ochig'i, senga aytadigan hech qanday bir qiziqarli gapim yo'q. Shuning uchun xatimni tugataqolay. Hurmat bilan, Tom Braun».

G'ALATI XONA

Bir kishi Londondagi mehmonxonadan unga xona berishlarini so'rabdi. U mehmonxona xodimi tomonidan kichkinagina bir xonaga taklif qilinibdi. U yerda hech narsa yo'q ekan. «Menga bu xona yoqmayapti, unga buyurtma bermayman», debdi u. «Biz sizni bu yerda yotishga majbur qilmayapmiz. Bu yer yotoqxona emas, lift-ku», debdi xodim.

YO'NALISH

Sayyoh: - Kechirasiz, bilmaysizmi, bu avtobus 10-ko'chada to'xtaydimi, yo'q-mi?

Yo'lovchi: - Ha, to'xtaydi. Meni kuzatib turing. Men tushadigan bekatdan bitta oldingisida tushasiz.

Sayyoh: - Rahmat sizga!

GEOGRAFIYA

-Jonni, men hech ham seni geografiyani o'rganayotganingga ishonolmayapman.

-Yo'q, oyijon. Dadam menga dunyo xaritasi kundan-kunga o'zgarib ketayotganini aytdilar. Men shunchaki yerning yangilanishini xaritadan kuzatmoqchiman.

«Ingliz yumori» turkumidan Bobur
NAZARMUHAMMEDOV tayyorladi.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,

Dilbar OLIMJONOVA,

Qahramon QURANBOYEV,

Jabbor RAZZOQOV,

Dilmurod RAHMATILLAYEV,

Dilshoda DADAJONOVA,

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV,

Nurxon NAFASOV,

Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida

022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 17626

Buyurtma N: J 2750

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin

SHAYADGAROV

Navbatchi:

Ma'mura

MADRAHIMOVA

Musahhih:

Nargiza

ABDULLAYEVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45